

## XALQARO MUZEYLAR KUNI

### *Uralova Muazzam*

*Namangan viloyat Tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy kotib*

### **Tarixi va Ahmiyati**

Xalqaro muzeylar kuni har yili 18-mayda nishonlanadi. Ushbu kun muzeylarning ahamiyatini oshirish va ularni ijtimoiy, madaniy hamda ta'lim sohasidagi rolini tan olish maqsadida tashkil etilgan. 1977-yilda ICOM (Xalqaro Muzeylar Kengashi) tomonidan yaratilib, ushbu kun butun dunyo bo'ylab turli xil tadbirlar va faoliyatlar bilan o'tkaziladi.

Maqsad va vazifalar Xalqaro muzeylar kunining asosiy maqsadi muzeylarning jamoatchilikdagi o'rnnini ko'rsatishdir. Muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlab qolish, balki ularni o'rganish va yangi avlodga etkazishda muhim rol o'yнaydi. Shuningdek, bu kun muzeylarga tashrif buyurish orqali ularning tadbirlarida ishtirok etish, va muzeylar taqdim etgan bilimlarni o'rganish imkonini beradi.

Tadbirlar va faoliyatlar Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan ko'plab tadbirlar, ko'rgazmalar va seminarlar tashkil etiladi. Muzeylar o'zlarining yangi ko'rgazmalarini taqdim etish, bepul ekskursiyalar o'tkazish yoki turli tematik tadbirlar o'rganish imkoniyatini yaratishadi. Bu tadbirlar asosan oilalar, talaba va kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning madaniy merosga qiziqishini oshirishga qaratilgan.

Muzeylarning ro'li Muzeylar nafaqat tarixiy narsalarni ko'rsatadi, balki ularning taqdimoti, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim dasturlari orqali jamiyatga xizmat qiladi. Zamonaviy muzeylar interaktiv va qiziqarli tajriba taqdim etadi hamda odamlarni ijodkorlikka va yangi bilimlar o'rganishga ilhomlantiradi. Bu, o'z navbatida, global madaniyat va an'analararo dialogni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muzeyshunoslik ilmi va muzey amaliyotining umumiyligi majmuiga kommunikatsiya to'g'risidagi tushunchaning kiritilishi bu sohaga kommunikatsion yondashish uslubi deyiladi.

Hozirgi kommunikatsiyaning umumiyligi tushunchasi ikki xil: birinchisi bu 1949 yilda Klod Shannon ishlab chiqargan aloqaning matematik nazariyasi, unda ma'lumot yetkazib berish ishining asosiy elementlari belgilangan: ma'lumot manbai kanal, uzatgich, qabul qilgich, shovqin va manzil egasi.

Ikkinchi manba - Kanadalik faylasuf Marshall Maklyuen konsepsiysi, u 1960 yilda chop etilgan qator ishlarida inson jamiyatni rivojini o'z ichiga til, yo'llar, pul, televide niye, kompyuter, bosma nashrni oladigan kommunikatsiya vositalari rivoji sifatida ko'rib chiqishni taklif etdi. Shannon va Maklyuen tushuncha va qarashlarining birikishi "kommunikatsiya" tushunchasining turli bilim sohalarida tarqalishiga olib keldi.

“Kommunikatsiya” iborasi axborot beruvchi va qabul qiluvchi orasidagi aloqa yaratuvchi tizim degan ma’noni anglatadi. Kommunikatsiya monolog yoki dialog tariqasida bo‘lishi mumkin.

Muzey kommunikatsiyasining nazariy asosini amalda ko‘z oldimizga keltirishimish uchun uni amaliy shakl tariqasida misol qilib keltirish mumkin.

Bu amaliy shakl o‘z ichiga: nazariyani, tarixni, tadqiqotni, loyihadagi ko‘rinishni qamrab oladi. Shularga asosan muzey ishidagi kommunikatsion yondashish nazariyasini amalga tadbiq etish uslubi yaratiladi.

Muzey amaliyotiga kommunikatsion yondashishning nazariy asoslari orqali jamiyatda muhrlanib qolgan muzey to‘g‘risidagi tarixiy, nazariy va an‘anaviy tushunchalarga yangicha izoh beriladi va tarixdan bizgacha yetib kelgan muzey faoliyatida ishlatiladigan ba’zi poetik iboralar va so‘zlarning me’yordan ortiq ishlatilishiga ham barham beriladi.

Muzey faoliyatiga kommunikatsion yondashuvning amaliy jarayonida esa mavjud sharoitni hisobga olgan holda muzey ishini o‘rganish, rejalashtirish va tashkil etish ko‘zda tutiladi.

Muzey faoliyatiga kommunikatsion yondashuvning loyihibiy shaklini amalga oshirishda muzey ishiga yangi tizmlarni tadbiq etish, ishning yangicha tashkiliy usullarini qo‘llash kabilar tushuniladi.

Shuningdek, muzey faoliyatini loyihalashtirishda kommunikativ yondashishning yana bir usuli - har bir muzey jihoz, ko‘rgazmasi va eksponatining dramaturgik senariysi yaratish va bunda jihozlarning o‘ziga xos tarixi, xususiyati, madaniy ahamiyati va tilini aks ettirishga urinish lozim.

Buni quyidagicha izohlash mumkin. Hammamizga ma’lumki, muzeydagi har bir ashyo o‘z-o‘zidan yig‘ib saqlanmaydi. U muzey mutaxasislari tomonidan biror bir qadriyatga ega bo‘lgan ashyo sifatida ma’lum maqsadni ko‘zlagan holatda muzeyning doimiy faoliyatiga qo‘shiladi va muzeyga tashrif buyuruvchilar bu eksponatlarni o‘zining madaniyati doirasida qabul qilib, baho beradi. Agarda tashrif buyurganlarning dunyoqarashi va tushunchasi muzey mutaxasislarining madaniy va ilmiy tushunchalariga mos kelsa ular orasida muloqot kelib chiqadi va ashyolarning haqiqiy qadriyati va ma’nosи yaqqol anglanadi. Shuning natijasida muzeyda biz kommunikatsiya deb atayotgan o‘zaro muloqot vujudga keladi va biz bu holatni muvofaqiyatli natijasini ko‘ramiz.

Modomiki muzey mutaxasislari va tomoshabinlar o‘rtasida namoyish qilinayotgan ashyoning asl qadr-qimmati to‘la tushunilib, unga to‘g‘ri baho berilmasa orada anglashilmovchilik vujudga keladi va muloqot buziladi. O‘zaro muloqotning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ashyoga baho berishda nuqtayi nazarning bir-biriga mos kelishini ta’minlash uchun balki uchinchi tarafni ham muloqotga qo‘sishga yoki narsani tasviriy namoyish qilishning o‘zgacha yo‘llarini qo‘llash lozim bo‘ladi.

XX asrning 60 yillari oxirida muzeysenoslikda kommunikativ nazariyani kanadalik olim Dunkan F. Kameron birinchi bo'lib ishlab chiqdi. Uning ishlari muzeysenoslik nazariyasining rivojlanishida haqiqiy burilish yasab, muzeyga boshqacha ko'z bilan qarash, ya'ni bu joy muzeyga keluvchi muzey eksponatlari bilan muloqot o'rnatish uchun barcha shartsharoitlar yaratilgan maskan sifatida yondashishga olib keldi. Bu muloqotning asosida muzeyga tashrif buyuruvchidan narsalarning "tilini bilish" talab qilinsa ko'rgazma namoyishining tashkilotchilaridan narsalarni so'zsiz tushuna oladigan qilib namoyish etish talab qilinishi yotadi.

Masalaga bunday yondashish Kameronga bir trafdan muzey faoliyatini mohirona tashkil etilishini, narsalarni to'plash va saqlashni ta'minlash imkoniyatini yaratish, ikkinchi tomondan muzey bilan odamlar orasida muloqot muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Bu ish avvalambor namoyish eta bilish muammosiga oid bo'lib, bu jarayonda asosiy yuk va vazifa tasviriy muloqot san'atini mohirona amalga oshira oladigan dizayner va rassomlar zimmasiga tushadi. Bu jarayonda muzey pedagoglari zimmasiga tushadigan vazifaga ham ko'proq urg'u beriladi. Chunki ular ekskursovodlarga o'xshab ekspozitsiyaga joylashtirilgan eksponatlar ma'nosini so'z orqali ifodalab berish bilan birga muzeydagi berilayotgan axborot tomoshabinlarni o'zлari tushunib olish va anglashga yordam beradi.

Bunda o'zaro aloqani ta'minlash lozimligini ham unutmaslik kerak. Buni ta'minlash bilan muzey psixologi va sotsiologi shug'ullanadi. Ularning vazifasiga (ilmiy xodim, rassom va dizaynerlar yordamida) namoyish etish jarayonining ta'sirchanligini oshirib (muzey pedagoglari yordamida) anglash malakasini paydo qilish muzeylar kommunikatsiyasini rivojlantirish kiradi.

Shunday qilib muzey kommunikatsiyasi nazariyasi asosida namoyish qilish tajribasi, muzey pedagogikasi hamda muzeydagi ijtimoiy psixologik tadqiqotlar yotadi.

Muzeydagi eksponatlar ma'lum davrda jamiyatda yuz bergan voqealarni ashyoviy dalillar sifatida saqlaydi va biror madaniy yoki tarixiy voqeani isbotlash uchun ulardan dalil sifatida foydalilaniladi. Bunda voqeanning o'zagina emas balki namoyish qilishdan asosiy maqsadni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Shu turdaggi axborotni mohiyatini anglab olishga intilishning o'ziga xos xususiyati uni yaqqol namoyish qila olishiga ham bog'liq. Muzey eksponatlarini namoyish etishda yangi usullar ham qo'llanilmoqda. Muzeyga keluvchilarning orasida imkoniyatlari chegaralangan ham bo'lishi mumkinligini hisobga olib namoyish qilishning noan'anaviy usullaridan ham foydalilanilmoqda. Elektron moslamalar yordamida ashyolarga virtual shakl berish orqali turli toifadagi odamlarga, hatto bolalarga ham taassurot qoldirish mumkin bo'lmoqda.

Internetga muzey axborotini joylashtirish biroz murakkabroq. Buning uchun muzeyning elektron versiyasini yaratish lozim bo‘ladi. Muzey faoliyatini Internetga kiritish orqali uning kengroq tanilishiga yordam beradi. Ya’ni:

- muzeyning shuhrati oshadi;
- internetda muzeyning aksi paydo bo‘ladi. Shu orqali u dunyoga taniladi;
- hamkorlikda ko‘rgazmalar uyushtirish imkoniyatlari ortadi; — muzeyning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati oshadi.

Internet multimedia texnologiyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu orqali beriladigan axborotning turli vositalaridan foydalanish mumkin, ya’ni matn, tasvir, video, audio sifatida yuborish yoki qabul qilish mumkin. Ko‘pchilik kompakt disklarda tarqatiladigan multimedia dasturlarini yaxshi biladi. Bunday dasturlar maxsus firmalar tomonidan ishlab chiqiladi va murakkab jarayon hisoblanadi. Bu holda muzey mahsulot o‘rniga o‘zida mavjud axborotni berib ayrboshlaydi. Bunday disklar muzeyning o‘zida SD yaratuvchilari tomonidan sotilishi mumkin. Multimedia dasturlarini bolalarbop qilib chiqarish yoki muzeyda namoyish qilish ham juda qiziqarli bo‘ladi. Bular maxsus terminal yoki videoblok sifatida bo‘lishi va tashrif buyuruvchilarga axborot berishda ishlatilishi mumkin.

Axborot tizimini kelajakda qanday tasavvur qilish mumkin?

Ilg‘or texnologiyalar barcha muzey xizmatlariga faol ta’sir ko‘rsatadi. Ular qayta ishslash va vizual axborot yozish, yangi vositalarni qo‘llashga, tasvirlar va ma’lumotlar bankini yaratish, yozishning raqamli tasvir va yozuvlar uslublarini qo‘llashning quyidagi ko‘rinishlari bilan ta’minlaydi:

### **Xulosa.**

Xalqaro muzeylar kuni — bu muzeylar, madaniy meros va jamiyat o‘rtasidagi aloqani qozonish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ushbu kunni nishonlash orqali har birimiz muzeylarga bo‘lgan qiziqishimizni oshirishimiz va ularning qadrini tushunishimiz mumkin.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

- 1.Almeyev R. Muzei Uzbekistana i sotsialno-kulturnie perspektivi ix razvitiya. – Tashkent: Izdatelsko-poligraficheskiy dom imeni Gafura Gulyama. 2007.
- 2.Ihalov I. Muzeyevedeniye. – Tashkent: Musiqa, 2006.
- 3.Kuryazova D.T. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. Toshkent: San’at, 2010.
- 4.Stolyarov B.A. Muzeynaya pedagogika. Istorya, teoriya, praktika. – Moskva: Vissnaya shkola, 2004.
- 5.Yureneva T.Yu. Muzeyevedeniye. – Moskva: Akademprojekt, 2003.